


02/1-02-05-46/1
10.05.2022-y.



Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022- yil 10- mayda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi

BAYONI № 8

2022- yil 10- may

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: D. Musinov Boshqarma boshlig'i
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari, Komissiya a'zolari, boshqarma hamda shahar, tuman statistika bo'limlari boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi yuzasidan tizim xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikning ta'sirchan choralarini ko'rish asosida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha hamda korrupsiyaga qarshi idoraviy hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishda viloyat hokimi Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi bilan hamkorlikda, tavsiyalari asosida va kelishilgan holda ishlarni tashkil etish to'g'risida.

(D.Musinov, Sh.Abdiyev, A.Suyunov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, D.Musinov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i D. Musinov so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni muhokama qildi.

Jumladan, korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan.

Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilganligi va hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda

asqotadigan yagona yechim yo‘q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o‘zi belgilaydi.

Qonunlarimizda bu atama shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy va nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi sifatida ta‘rif berilgan. Demak, o‘z-o‘zidan ayonki, davlat xizmatchilari tomonidan poraxo‘rlik, mansab mavqeini suiiste‘mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilishi davlat hokimiyatining obro‘sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada amaldagi hokimiyatga nisbatan noroziliklarga sabab bo‘ladi.

Shu tufayli tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida to‘rtta omilni ko‘rsatadilar:

Birinchisi, iqtisodiy sabablar. Korrupsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni bevosita ma‘muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan, hokimiyat va byurokratiyaning mavqei baland bo‘lgan sharoitda rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning teng nazoratdan holi, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki ta‘qiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi.

Ikkinchisi, huquqiy sabablar. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liqdir. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi, institutsional sabablar bo‘lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan holiligi kiradi.

To‘rtinchisi, ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma‘naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligidir.

Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi. Shu bilan birga, uning ta‘siri ostida fuqarolarning ijtimoiy adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo‘qoladi. Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz zarur ekanligini ta‘kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig‘i D. Musinovning **Korrupsiyaga qarshi kurashish** yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva) va Dasturiy texnik-ta‘minot va ma‘lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Agarda, mas‘ul xodimlar tomonidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan holatlarga yo‘l qo‘ygan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikga muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilsin.

4. Mazkur yig‘ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasi a‘zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo‘minov